



The development strategy: the opportunities for young people in New Uzbekistan

Bakhromjon ILHOMJONOV¹

Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan

ARTICLE INFO

Article history:

Received January 2021

Received in revised form

30 January 2022

Accepted 20 February 2022

Available online

15 March 2022

Keywords:

“The Development Strategy of New Uzbekistan”, “Main Directions and Objectives of the Development Strategy”, “Youth”.

ABSTRACT

The article aims to analyze the main directions and objectives of the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026, approved by the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated January 28, 2022 PD-60, the role and place in youth life in the next 5 years, legal reforms in recent years, as well as the issues of working with young people, protecting and supporting their legitimate interests, supporting and encouraging gifted and talented youth, further improving the development of entrepreneurship among young people. The article analyzes the content of the concepts “The Development Strategy of New Uzbekistan”, “Main directions and objectives of the Development Strategy”, “Youth”, “State Youth Policy” and the specifics of youth policy in the Republic of Uzbekistan. The author also examines the content of socio-legal reforms in the field of state youth policy in the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 7, 2017 No PD-4947 “On the Strategy for further development of the Republic of Uzbekistan”. Based on the research, suggestions and recommendations are made.

2181-1415/© 2022 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss2/S-pp1-10>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Independent researcher of the Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan. Tashkent, Uzbekistan.

Taraqqiyot strategiyasi: Yangi O‘zbekistonda yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar

Kalit so‘zlar:

“Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”,
“Taraqqiyot strategiyasining asosiy yo‘nalishlari va maqsadlari”,
“yoshlar”,
“yoshlarga oid davlat siyosati”.

ANNOTATSIYA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining asosiy yo‘nalishlari va maqsadlari, kelgusi 5 yilda yoshlar hayotidagi o‘rni va roli, so‘nggi yillarda mamlakatimizda yoshlar siyosati yo‘nalishida amalga oshirilgan huquqiy islohotlar, shuningdek, yoshlar bilan ishlash, ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish va har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, iqtidorli va iste‘dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish, yoshlar o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish masalalarini yana-da takomillashtirish masalalarini tadqiq etishni maqsad qilgan. Maqolada “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”, “Taraqqiyot strategiyasining asosiy yo‘nalishlari va maqsadlari”, “Yoshlar”, “Yoshlarga oid davlat siyosati” tushunchalarining mazmun-mohiyati va O‘zbekiston Respublikasida yoshlar siyosatining o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Muallif O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-49/47-son Farmonida yoshlarga oid davlat siyosati sohasida amalga oshirilgan ijtimoiy-huquqiy islohotlarning mazmun-mohiyatini ham tadqiq etgan. Tadqiqotdan kelib chiqib, taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Стратегия развития: возможности, создаваемые для молодежи в Новом Узбекистане

Ключевые слова:

Стратегия развития Нового Узбекистана, основные направления и задачи Стратегии развития, молодежь, государственная молодежная политика».

АННОТАЦИЯ

В данной статье, проанализированы основные направления и задачи Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы, утвержденной указом Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60.

Роль и значение данного документа в жизни молодежи в ближайшие 5 лет, законодательные реформы в сфере молодежной политики страны, защиты прав и интересов подрастающего поколения, поддержки и поощрения одаренной и талантливой молодежи, совершенствования системы молодежного предпринимательства.

В статье, рассмотрен понятийный аппарат «Стратегия развития Нового Узбекистана», «основные направления и задачи Стратегии развития», «Молодежь», «государственная молодежная политика», а также специфические особенности молодежной политики в Республике Узбекистан. Также, автор обращается к социально-правовым реформам в сфере

государственной молодежной политики, осуществленным в рамках указа Президента Республики Узбекистан № УП-4947 от 7 февраля 2017 г.

«О Стратегии дальнейшего развития Республики Узбекистан». На основе результатов исследования разработаны предложения и возможные рекомендации.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yil-larga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni bilan Yangi O'zbekistonning kelgusi 5 yilga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi tasdiqlandi.

Mazkur hujjat O'zbekistonni keyingi 5 yilda rivojlantirishning 7 ta ustuvor yo'nalishi doirasida 100 ta maqsadga erishishga qaratilgan va 2022-yilda amalga oshirilishi lozim bo'lgan 398 ta chora-tadbirni o'z ichiga oladi.

Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida quyidagi yettita ustuvor yo'nalish nazarda tutildi:

- inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;
- mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;
- milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash;
- adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;
- ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;
- milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;
- mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish [1].

Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida yettita ustuvor yo'nalish nazarda tutildi. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish – Taraqqiyot strategiyasining to'rtinchi ustuvor yo'nalishi hisoblanib, ushbu yo'nalishda bevosita yoshlar bilan ishlash, ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash, siyosiy, huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, siyosiy jarayonlarga faol jalb qilish, iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish, yoshlar o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish masalalarini yanada takomillashtirishga e'tibor qaratildi.

Xususan, to'rtinchi ustuvor yo'nalishdagi 70-maqsad "Yoshlarga oid davlat siyosatini yanada takomillashtirish" deb nomlanib, undagi maqsadlarga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutildi:

birinchidan, yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash bo'yicha:

Jumladan, o'tgan davr mobaynida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2018-yil dekabr oyida bo'lib o'tgan 73-sessiyasida O'zbekistonning tashabbusi bilan "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" to'g'risidagi rezolyutsiya qabul qilindi. O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqish tashabbusini ilgari surdi.

2019-yilda Toshkent shahrida Islom hamkorlik tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha Mustaqil doimiy komissiyasining 6 yillik seminari o'tkazildi va uning natijalari bo'yicha "Yoshlar huquqlari to'g'risida"gi Toshkent deklaratsiyasi qabul qilindi.

Yoshlarni ijtimoiy-siyosiy hayotga jalb qilish, shuningdek, ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni voyaga yetkazishning amaliy chora-tadbirlarini belgilash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son qarori bilan O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi tasdiqlandi. Konsepsiyaga ko'ra, 2021–2025-yillarda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bo'yicha prognozlarni inobatga olgan holda, yoshlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy bazani takomillashtirish ko'zda tutildi [2];

ikkinchidan, yoshlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash, ular uchun malakali tibbiy xizmatdan foydalanish shart-sharoitlarini yaxshilash, yoshlar o'rtasida tibbiy savodxonlikni oshirish va sog'lom turmush tarzini mustahkamlash bo'yicha:

yoshlarda reproduktiv salomatlik, to'g'ri ovqatlanish va gigiyena qoidalari, sog'lom turmush tarzi haqida tushunchalar to'liq shakllanmaganligi oqibatida turli yuqumli va surunkali kasalliklar, bevaqt o'lim holatlari, giyohvand moddalar, alkogol va tamaki mahsulotlariga ruju qo'yish, psixotrop moddalar iste'mol qilish kabi salbiy holatlar, yaqin qarindoshlar o'rtasida nikoh tuzilishi natijasida esa millat genofondi buzilishi, tug'ma nuqsonli bolalar dunyoga kelishi holatlari saqlanib qolmoqda.

Albatta, ushbu salbiy holatlarning oldini olish maqsadida, birinchi navbatda, yoshlar o'rtasida tibbiy madaniyat, xususan, shaxsiy gigiyena, to'g'ri va ratsional ovqatlanishga rioya etish bo'yicha targ'ibot tadbirlarini va yoshlarning sifatli sog'liqni saqlash tizimi imkoniyatlaridan foydalanishini ta'minlashda soha tashkilotlari hamkorligini kuchaytirish zarur.

Bunda, yoshlar salomatligi va farovonligini belgilaydigan omillarni hisobga olgan holda, ularni sog'liqni saqlash tizimi tomonidan qamrovini kengaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, yoshlarning ruhiy salomatligi masalalarida maqsadli yordam ko'rsatish xizmatlarini rivojlantirish, yoshlarga reproduktiv salomatlik, tibbiy masalalardagi huquqlari haqida sifatli ma'lumotlar yetkazilishini ta'minlash hamda yoshlar orasida turli yuqumli va surunkali kasalliklar, bevaqt o'lim holatlari, giyohvand moddalar, alkogol va tamaki mahsulotlariga ruju qo'yish, psixotrop moddalar iste'mol qilish holatlarini oldini olish, shuningdek, millat genofondini yaxshilash, oilada tibbiy madaniyatni yuksaltirish, sog'lom avlod tug'ilishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, yaqin qarindoshlar o'rtasida nikoh tuzilishi holatlarini oldini olish lozim;

uchinchidan, yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish bo'yicha:

O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni-ning 5-moddasida yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish [3] – O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri etib belgilangan.

Bu borada, yoshlar o'rtasida turli ma'naviy, intellektual va huquqiy targ'ibot tadbirlarini, shu bilan birga, turli ma'naviy-madaniy ko'ngilochar ko'rik-tanlovlarini o'tkazish maqsadga muvofiq hisoblanadi;

to'rtinchidan, yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta'lim olishini ta'minlash, hududlarda inklyuziv ta'lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish bo'yicha:

yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, ularni yuksak axloq va intizomli qilib tarbiyalash, sifatli va mukammal ta'lim olishi va vatanparvarlik ruhida voyaga yetishi mamlakat iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotining kaliti hisoblanadi. Bu ijtimoiy barqarorlik va muvaffaqiyat asosidir.

Bugungi kunda yoshlarning har sohada faol, ijodkor va izlanuvchan bo'lishi, ertangi kelajak uchun bugundan mustahkam poydevor qo'yishlari zarurligini davrning o'zi taqozo etmoqda. Navqiron avlod vakillarini Vatanga sadoqat, milliy an'ana va qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, bandligini ta'minlash, huquq va manfaatlarini himoya qilishdek ustuvor vazifalarni amalga oshirish, yoshlarning ta'lim, ziyolilik darajasi, intellektual salohiyati, odob-axloqi, zukkoligi, harakatchanligi va shijoati, o'zgarishlarga tayyorligi jamiyatning umumiy taraqqiyot darajasini belgilaydi;

beshinchidan, yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish bo'yicha:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida yoshlarning bandligini ta'minlash va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish chora-tadbirlari bo'yicha videoselektor yig'ilishida: "Bugungi kunda respublikamizda 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar soni 18 milliondan oshdi. Bu esa mamlakatimiz aholisining 55 % degani. Hozirgi kunda yoshlar orasida ishsizlik darajasi 17 % ni yoki 844 ming nafarni tashkil etmoqda [4]", – deya ta'kidlagan edi.

Natijada, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-martdagi "Yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 132-sonli Qarori asosida yoshlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish, ularni ijtimoiy-huquqiy va psixologik qo'llab-quvvatlash, kasb-hunarga o'rgatish va bandligini ta'minlash ishlarini samarali tashkil etishning doimiy moliyaviy manbalarini va ulardan foydalanish tartibini belgilash maqsadida "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil etildi [5].

"Yoshlar daftari"ga 18 yoshga to'lgan va 30 yoshdan oshmagan (qoidaga ko'ra, 30 yoshga to'lgan va 31 yoshga kirmagan) ijtimoiy himoyaga, psixologik qo'llab-quvvatlashga va iqtisodiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj va ishsiz yoshlar toifasi kiritiladi.

Moddiy ahvoli qiyin yoshlarga bir marta beriladigan moddiy yordamni tayinlashning aniq miqdori yoshning hayotiy vaziyati murakkabligini inobatga olgan holda BHMning 4 baravarigacha miqdorda "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi Vasiylik kengashi qaroriga muvofiq to'lab berilishi belgilandi;

oltinchidan, yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash bo'yicha:

yoshlarni fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash barchamiz uchun o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan masaladir. Ushbu dolzarb masala uzluksiz jarayon bo'lib, u bir-biriga bog'liq siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-mafkuraviy, madaniy-ma'rifiy tadbirlar majmuasidan iborat.

Yoshlarda mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, turli zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan qilib tarbiyalash, ularni turli yot g'oya va tahdidlardan asrash, o'z mustaqil fikriga ega, irodali, fidoyi va vatanparavr insonlar etib tarbiyalash eng asosiy maqsadlardan biriga aylanmog'i lozim.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi 140-son Qarori bilan Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash Konsepsiyasi tasdiqlandi.

Mazkur Konsepsiya mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari va asosiy prinsiplari asosida ishlab chiqildi hamda hozirgi murakkab globallashtirish davrida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan sharoitda yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bog'liq dolzarb vazifalar va ularni hal etish yo'llari, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari, oila, mahalla, ta'lim-tarbiya institutlarining bu boradagi roli va ahamiyatini, o'zaro hamkorligini milliy va xalqaro huquqiy normalarni hisobga olgan holda belgilab berdi [6];

yettinchidan, yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'rvonlik va shafqatsizlik g'oyalariidan himoya qilish bo'yicha:

O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni-ning 5-moddasida yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'rvonlik va shafqatsizlik g'oyalariidan himoya qilish – O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri etib belgilangan.

Hammamizga ma'lumki, ayrim telegram messendjerlaridan terrorchi tashkilotlar aloqa, targ'ibot vositasi sifatida foydalanilganlik holatlari mavjud. Internetda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Belgiya huquqni muhofaza qiluvchi organlari vakillari terrorchilar tomonidan yoshlarga asosan messendjerdan foydalanib ta'sir etayotganligini ko'rsatishgan.

The Wall Street Journal nashrining 2016-yil 20-oktyabrdagi sonida chop etilgan Steysi Meyxtri va Sem Shexnerning maqolasida terrorchilar Fransiyada sodir etilgan va rejalashtirilgan terrorchilik harakatlarida ham ushbu vositadan foydalangani bayon qilingan.

Messendjer dasturi asoschisi Pavel Durov o'z twitterida terrorchilarning 660 dan ortiq kanallari yopilganini va ma'lumotlar kelib tushganda kuniga 5-10 ta kanallar yopilayotganini ta'kidlagan [7].

Bu borada, avvalo, yoshlarimiz o'rtasida bu kabi illatlarni oldini olish hamda turli ijtimoiy tarmoqlardan g'ayriqonuniy, axloqqa zid maqsadlarda foydalanishning oldini olishga yo'naltirilgan keng ko'lamli targ'ibot ishlarini amalga oshirishimiz lozim;

sakkizinchidan, yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish bo'yicha:

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir ishlar samaradorligini yanada takomillashtirish, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda huquqiy bilimlarini oshirib borishning zamonaviy usullarini joriy etish, shuningdek, aholini, ayniqsa, yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilish bo'yicha mustahkam huquqiy immunitetni shakllantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-56/18-sonli Farmoni qabul qilindi.

Mazkur Farmon bilan tasdiqlangan Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Konsepsiyasiga ko'ra, Yoshlarga o'z huquqlarini himoya qilishning amaliy mexanizmlarini o'rgatishga qaratilgan "Street law" (Ko'cha huquqi – oddiy huquq) loyihasini keng

joriy qilish va yoshlar tomonidan sodir etilayotgan yo'l harakati qoidalarini buzish, noqonuniy avtopoygalar o'tkazish va boshqa noxush hodisalarning oldini olish maqsadida "Eng tartibli yosh haydovchi" loyihasini tashkil etish belgilandi.

to'qqizinchidan, iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish bo'yicha:

So'nggi yillarda mamlakatimizda iqtidorli yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni yanada jadallashtirish, ularni ilmiy-texnik faoliyatga keng jalb qilish, iqtidorli yoshlarning, jumladan, olis hududlarda istiqomat qilayotgan yigit-qizlarning bilim, ko'nikma va malakasini oshirish, innovatsion g'oyalarini amaliyotga tatbiq etish hamda hayotda o'z o'rnini topishiga ko'maklashishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvarda "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 23-sonli va 2022-yil 18-yanvarda "Iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash "Ulug'bek" jamg'armasi faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 30-sonli Qarorlari qabul qilindi.

Iqtidorli yoshlarni izlab topish, iste'dodini ro'yobga chiqarish va ularni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi;

o'ninchiidan, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish bo'yicha:

yoshlarni ish bilan ta'minlashda ularning iqtisodiy mustaqillikka erishishlari va hayotda o'z o'rinlarini topib ketishlarida kichik biznes va tadbirkorlik sohasining rivojlanishi eng asosiy omil va manba bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-52/42-sonli, 2018-yil 27-iyundagi "Yoshlar-kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risida"gi PF-54/66-sonli Farmonlari, 2018-yil 26-apreldagi "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-36/80-sonli, 2018-yil 7-iyundagi "Har bir oila – tadbirkor" dasturini amalga oshirish to'g'risida"gi PQ-37/77-sonli va 2018-yil 14-iyuldagi "Aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-38/56-sonli Qarorlari asosida imtiyozli kreditlar oilaviy tadbirkorlik, daromad topishga qaratilgan muayyan mehnat faoliyati bilan shug'ullanish va faoliyat turini kengaytirish istagini bildirgan aholi hamda tadbirkorlik subyektlariga yillik 8 foiz stavkada 3-6 oygacha bo'lgan imtiyozli davr bilan 3 yildan ko'p bo'lmagan muddatga ajratiladi. Bunda, 2020-yil 1-yanvardan boshlab kreditlar AT Xalq banki, "Mikrokreditbank" ATB va "Agrobank" ATB orqali O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasida ajratish imkoniyatlari yaratildi; [8]

o'n birinchidan, yoshlarda sog'lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish bo'yicha:

aholi sog'lig'ini mustahkamlashga ko'maklashadigan aniq dasturlarni amaliyotga joriy etish, yoshlar, ayollar va keksalarni sog'lom turmush tarziga keng jalb qilish va ularni jismoniy faolligini oshirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-60/99-sonli Farmon qabul qilindi.

Mazkur Farmon bilan yil davomida aholi, shu jumladan, yoshlar o'rtasida to'rt bosqichli (mahalla, tuman (shahar), viloyat, respublika) yurish va yugurish, badminton, stritbol, mini futbol, velosport, "Workout" bo'yicha sport musobaqalarining tashkil qilinishini, shu bilan birga, sportchi yoshlarni saralash va katta sportga iqtidorli sportchilarni tanlab olish (seleksiya), yoshlar orasida sportni ommalashtirishda yuqori natijalarga erishish maqsadida hududlarning o'ziga xos xususiyatlari, aholining qiziqishi va xohish-istaklaridan kelib chiqib, umumta'lim maktablarini kamida bittadan ustuvor, istiqbolli, rivojlanayotgan, shu jumladan, milliy sport turlariga ixtisoslashtirilish belgilandi.

o'n ikkinchidan, yosh oilalarni ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish bo'yicha:

So'nggi yillarda ijtimoiy imkoniyatlari cheklangan aholi qatlamlari va yosh oilalar uchun arzon uy-joylar barpo etilmoqda.

2018–2020-yillarda mamlakat ijtimoiy hayotida alohida namuna ko'rsatgan yosh oilalarga 3 380 ta ko'p qavatli uylar qurilib, ular uchun Davlat byudjetidan 156,5 mlrd so'm pul mablag'i boshlang'ich badal to'lovi sifatida to'lab berildi hamda 700 mlrd. so'mdan ortiq miqdordagi mablag' imtiyozli ipoteka krediti sifatida ajratildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-iyundagi "2021–2023-yillarda Yoshlar uylarini qurishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Mazkur Qaror bilan 2021–2023-yillarda Yoshlar uylarini qurishning maqsadli ko'rsatkichlari tasdiqlandi.

o'n uchinchidan, yoshlarning huquqlari va erkinliklarini ro'yobga chiqarish sohasida faoliyat olib boruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha:

Xorijiy mamlakatlarda o'qiyotgan va mehnat qilayotgan o'zbekistonlik yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash hamda jamiyatda o'z o'rnini topishiga ko'maklashish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 5-avgustdagi "O'zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 649-sonli Qarori qabul qilindi.

Mazkur Qaror bilan "O'zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasi" nodavlat notijorat tashkiloti faoliyati takomillashtirilib, unga davlat organlari va muassasalari, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati boshqa institutlari, shuningdek, xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qilish rejalarini belgilashda, tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishda amaliy yordam ko'rsatish vazifasi belgilandi.

Shu bilan birga, yoshlar siyosati sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, yoshlar sohasidagi xalqaro reytinglarda mamlakatimiz mavqeini oshirish bo'yicha zarur choralar ko'rish, xorijda ta'lim olayotgan yoshlar bilan olib borilayotgan ishlarni tizimli yo'lga qo'yish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, "Yoshlar – Yangi O'zbekiston bunyodkorlari" shiori ostida "Yangi O'zbekiston – Uchinchi Renessans" g'oyasining ro'yobga chiqarilishini ta'minlash maqsadida "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" mavzusida plakatlar turkumi, multimedia va boshqa zamonaviy targ'ibot mahsulotlari yaratish, "O'zbekiston qahramonlari", "Ma'naviyat lug'ati" kitoblarining taqdimotini o'tkazish hamda har yili an'anaviy tarzda "Ma'naviyat festivali"ni o'tkazib borish belgilandi.

Qolaversa, jahon va mahalliy ommaviy axborot vositalariga Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Orolbo'yi bo'yicha rezolyutsiyasini keng targ'ib qilish, mintaqaning sarmoyaviy, turizm va madaniy salohiyatini rivojlantirish maqsadida "Orol orzusi" dasturini amalga oshirish, bunda Orolbo'yida yoshlarni o'qitish uchun xorijiy grantlarni jalb qilish hamda Nukus shahrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Besh tashabbus"i xalqaro festivalini tashkil etish va "Orol dengiziga poyezd" yoshlar ekologik aksiyasini o'tkazish ko'zda tutildi.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasining har bir bandida belgilab berilgan chora-tadbirlarda yoshlarimizning ertangi farovon turmush tarzi, mamlakatimiz kelajagi aks ettirilgan.

Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi mamlakatimizda yoshlar huquq-manfaatlarining yanada himoya qilinishi barobarida ertangi kunda mamlakatimiz yoshlarining yuqori marralarni zabt etishiga, ularning yurtimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishiga zamin yaratadi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek, "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat" [9].

Kelgusidagi vazifamiz esa yuqoridagi maqsadlarning izchilligini, yanada xalqchilligini oshirish va hayotiyiligini ta'minlash uchun barchamiz o'z burchimiz va mas'uliyatimizni his qilgan holda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish yo'lida xizmat qilishimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/5841063>.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 23-sonli qarori // <https://lex.uz/docs/5234746>

3. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni // <https://lex.uz/docs/3026246>.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida yoshlarning bandligini ta'minlash va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish chora-tadbirlari bo'yicha videoselektor yig'ilishi // https://uza.uz/uz/posts/yoshlar-bandligini-taminlash-pirovardmaqsad_237495.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 2021-yil 11-martdagi "Yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 132-sonli qarori // <https://lex.uz/docs/5328442>.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi "Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 140-son qarori // <https://lex.uz/docs/3571158>.

7. Telegram messendjeri: yangi imkoniyatlar, yangi tahdidlar // <http://old.muslim.uz/index.php/rus/maqolalar/item/1759>.

8. O'zbekistonda yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishda amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi // <https://review.uz/oz/post/ozbekistonda-yoshlar-tadbirkorligini-qollab-quvvatlash-va-rivojlantirishda-amalga-oshirilayotgan-islohotlar-samarasi>.

9. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi // <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017>.